

“QIYOS”KONSEPTUAL SEMANTIKASI VA “QIYOS” LISONIY SEMANTIKASI O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLAR

ASHUROV MO‘MIN UMARJONOVICH

Andijon davlat chet tillari instituti,

ingliz tili amaliyoti kafedrası,:

muminjonashurov@gmail.com

UDK 415.2

Tel: +998932552076

Annotatsiya: *Mazkur maqolada turli tizimdagi tillarda “qiyos” konseptual semantikasi va “qiyos” lisoniy semantikasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga bag‘ishlangan bo‘lib, shu hususda ayrim olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashishlar mazkur konsept misollari orqali yoritib berilgan.*

Калит сўзлар: анализ, синтез, мантикий таққослаш, концептуал семантикаси, вербализатор, универсал, уникалия, антропоцентрик ёндашув, когнитив тилшунослик, прагмалингвистика, психолингвистика.

Аннотация: *Данная статья посвящена взаимодействию концептуальной семантики «сравнения» и лингвистической семантики «сравнения» в языках разных систем, а на примерах этого явления освещаются теоретические подходы, выдвигаемые некоторыми учеными в этом отношении. концепция.*

Ключевые слова: анализ, синтез, логическое сравнение, концептуальная семантика, вербализатор, универсальность, уникальность, антропоцентрический подход, когнитивная лингвистика, прагмалингвистика, психолингвистика.

Abstract: *This article is devoted to the interaction of the conceptual semantics of “comparison” and the linguistic semantics of “comparison” in the*

languages of different systems, and examples of this phenomenon highlight the theoretical approaches put forward by some scientists in this regard. concept.

Key words: *analysis, synthesis, logical comparison, conceptual semantics, verbalizer, universal, uniqueness, anthropocentric approach, cognitive linguistics, pragmalinguistics, psycholinguistics.*

Avvalo, kognitiv yoki konseptual semantika va lisoniy semantika o‘zi nima-degan savolga to‘xtalib o‘tishimiz o‘rinli. Lisoniy semantika bu – so‘zga yo‘g‘rilgan, ya’ni insonning biror narsa va voqelikni uning konseptosferadagi tushuncha va bilimlardan foydalangan holda yozma yoki og‘zaki nutq shaklida aks ettirilishidir.

Kognitiv (konseptual) semantika esa insonning biror narsa va voqelik haqidagi uning konseptasferasidagi idrokiy va tasavvuriy tushuncha va bilimlar yig‘indisi desak bo‘ladi. Ya’ni ushbu tasavvurlarni inson idrok etadi, tushunadi va faraz qiladi, lekin hali nutq shakliga o‘tkazmagan holatda bo‘ladi.

Inson muloqot jarayoniga kirishar ekan, albatta, u o‘sha muloqot jarayoniga yoki vaziyatiga mos ravishda so‘zlashadi. U ob‘ektiv yoki sub‘ektiv borliq haqida o‘zining tafakkurida mujassam bo‘lgan, freymlashgan konseptlar yig‘indisi, ya’ni konseptosferasi, shuningdek, konseptual bilimlari majmuasi - “konseptualiteti”¹ga tabiiy ravishda muloqot qiladi. Chunki so‘zlovchi suhbat jarayonidan kelib chiqqan holda muloqot qiladi. Agar uning konseptosferasi suhbat mazmuniga oid tushuncha va tasavvurlar bilan boy bo‘lsa, eshituvchi, o‘quvchi uni oson va lo‘nda axborot holatida tushunishga erishadi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaralganda, “konsept” mental jarayonlarning natijasi sifatida “kognitiv/konseptual semantika”ning freymlashgan

¹ Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике// Систем-структур тилшunoslik муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. -Самарқанд, 2010. - 68-69 бетлар.

ko‘rinishi bo‘lib, tilda o‘zining maxsus verbalizatorlariga, ya‘ni uni voqelantiruvchi vositalariga ega”².

“Qiyos” konseptini ham xuddi shu kabi konseptlar qatorida ko‘rish mumkin.

“Qiyos” konsepti yoki “konseptual semantika”si universal tabiatga ega bo‘lib, uning bunday tabiati mazkur konseptning muloqot (kommunikatsiya) nuqtai nazaridan muhim bir voqelik ekanidan dalolat beradi. Sababi shuki, “qiyos” konseptual semantikasi barcha tillarda so‘zlashuvchi kishilar tafakkurida, konseptosferasida mavjud idrokiy (mental) tushunchalardan biri bo‘lib, tillarda o‘ziga xos maxsus ifodalovchi vositalarga, ya‘ni verbalizatorlarga ega bo‘lgan umumlisoniy hodisadir. Buning yaqqol namunasini biz tilda muloqot olib boruvchilarning kundalik hayotida ob‘ektiv olamdagi barcha mavjud bo‘lgan va bo‘lmagan (Alpomishdek pahlavon – to‘qima obraz) narsalar, voqea va hodisalar, ish-harakat va jarayonlar, vaziyat-ho‘latlarning sifati va boshqa kerakli jihatlariga o‘xshashligini tasvirlashda va ifodalashda ko‘rishimiz mumkin. Chunki qiyos barcha turdagi muloqotda va har qanday uslubda qo‘llaniladi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqsak, so‘zlashuvchilar yoki yozuvchi adiblar bunday holatlarda o‘zlarining muloqot maqsadi (intensiyasi) dan kelib chiqqan holda o‘z fikrlarini eshituvchi va o‘quvchiga mos, aniq, tushunarli va ta‘sirchan yetkazish uchun ma‘lum bir vaziyat yoki voqelikni boshqa bir vaziya, holat, ob‘ekt, shaxs yoki voqelikka qiyoslaydi, taqqoslaydi va solishtirib ifodalaydilar.

Bunday hollarda ko‘pincha matn turidan kelib chiqib, qiyos semantikasini voqelantiruvchi vositalar tanlanadi. Masalan, nazmiy asarlarda qiyos semantikasidan foydalanish uchun ko‘pincha quyidagi stilistik (badiiy tasvir) vositalar- metafora, metonimiya, sinekdoxa, simvol, jonlantirish, epitet kabilar asarni yanada semantik va stilistik pragmatik ko‘lamini oshirish uchun qo‘llaniladi.

² Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка.- М., 1973.- 326 с.

Ushbu vositalar orqali asar yanada jonlanadi, o'quvchi va eshituvchini ma'lum bir muhit va vaziyatga olib kirib, ma'lum bir ma'noda semantik va idrokiy jihatdan yaqinlashadi. Masalan,

Gullagan vodiylaring go'zallikka andoza,

Samarqand-u Buxoro keng dunyoda ovoza.

Yerda hur-u paridek qizlaring gulgun toza,

O'g'lonlaring mard erur nomardek sotilmag'ay

Ona yurt O'zbekiston oltinga topilmagay. (Sh.Jo'raev "O'zbekiston")

Mazkur satrlar konseptual semantika nuqtai nazaridan, avvalo, kishi ongida shunday bir tengsiz diyorni tasavvur qilishga undaydi, lisoniy, ya'ni tilga yo'g'rilgan semantik jihatdan go'zallik namuna olgan go'zal go'shalari, olamga dong'i ketgan makonlari, go'zalligi va odobi farishtalarga qiyoslangan qizlari va mard o'g'lonlarining tavsifi yozuvchi tomonidan ustalik bilan qiyos konseptining adekvat variantlari orqali ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, inson o'zining ongidagi bilimlar yig'indisidan kelib chiqqan holda biror voqelikni o'z holicha, qanday bo'lsa, shunday tasavvur etishi mumkin, chunki inson o'ziga biror narsani mental singdirishi uchun unga ortiqcha axborotning keragi yo'q bo'ladi, ammo u konseptual semantikasini, tasavvur eta olganini lisoniy ko'rinishga o'girganda, albatta, lisoniy semantikaning hajmi va ko'lami kengroq bo'ladi. Chunki u (ongimizdagi tushuncha) qanday uslub va yo'sinda yo'naltirilayotganiga qarab ma'lum holatda boyitiladi va kengaytiriladi. Nutq vaziyatining har qanday ko'rinishlarida biz o'sha boyitilganlikni "qiyos" lisoniy konseptini voqe'lantiruvchi verbalizatorlari orqali ko'rishimiz mumkin.

Shundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, "Qiyos"konseptual semantikasi va "qiyos" lisoniy semantikasi bir-birini ong va tildagi aksi va u har qanday to'liq tushunarli bo'lmagan tushunchalarni uyqash ekvivalentlari orqali oydinlashtirilishi va lo'ndalashtirilishida katta o'rin tutadi. Mashxur tilshunos olim V.Maslova

ta'kidlaganidek ,“Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o‘z aksini topadi³.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arnold I.V. Stilistika sovremennogo angliyskogo yazыka.- M.,1973,326 s.
2. V Maslova. Lingvokulturologiya. - M., «Academia», 2001, Z-b.
3. Xoshimov G.M. K teorii konseptov i ix taksonomiki v kognitivnoy lingvistike// Sistem-struktur tilshunoslik muammolari. Filologiya fanlari doktori, professor N.K.Turnièzov tavalludining 70-yilligiga bagishlangan Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. -Samarqand, 2010. - 68-69 betlar.

³ В Маслова. Лингвокультурология. - М., «Academia», 2001, 3-б.